

The Communicative Purpose in Literary Text Pragmatics

Firuzabonu BEKMURODOVA¹

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

ARTICLE INFO

Article history:

Received May 2025

Received in revised form

15 May 2025

Accepted 25 June 2025

Available online

15 July 2025

Keywords:

literary text,
pragmatics,
phonographic level,
lexical level,
syntactic level,
communicative impact,
implicature.

ABSTRACT

This article examines the core pragmatic aspects of literary texts. The pragmatics of a text is analyzed at phonographic, lexical, syntactic, and whole-text levels. The role of each level's devices in shaping communicative impact between author and reader, as well as among characters, is discussed. Using examples from Uzbek literature, the study explains the pragmatic significance of devices such as italics, capitalization, quotation marks, lexical expressiveness, word order, and repetition. Based on relevant scholarly sources, the article also presents classifications of literary text pragmatics and outlines methods of analysis.

2181-3663/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss4-pp40-45>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Badiiy matn pragmatikasida kommunikativ maqsad

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

badiiy matn,
pragmatika,
fonografik sath,
leksik sath,
sintaktik sath,
kommunikativ ta'sir,
implikatura.

Mazkur maqolada badiiy matnning asosiy pragmatik jihatlari ko'rib chiqiladi. Matn pragmatikasi fonografik, leksik, sintaktik va umumiy matn darajalarida tahlil qilinadi. Har bir darajadagi vositalarning yozuvchi – o'quvchi hamda personajlar o'rtasidagi kommunikativ ta'sirni shakllantirishdagi roli yoritilgan. O'zbek adabiyotidan olingan misollar asosida kursiv, bosh harf, qo'shtirnoq, leksik bo'yoqdorlik, so'z tartibi, takrorlar kabi vositalarning pragmatik ahamiyati izohlanadi. Maqolada, shuningdek, ilmiy manbalarga tayangan holda badiiy matn pragmatikasining tasnifi va tadqiq metodlari haqida ma'lumot beriladi.

¹ PhD, Senior Lecturer, National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek.
E-mail: bekmurodovafiruz0306@gmail.com

Коммуникативная цель в прагматике художественного текста

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

художественный текст,
прагматика,
фонографический
уровень,
лексический уровень,
синтаксический уровень,
коммуникативное
воздействие,
импликатура.

В статье рассматриваются основные прагматические аспекты художественного текста. Прагматика текста анализируется на фонографическом, лексическом, синтаксическом и общем уровне текста. Освещается роль средств каждого уровня в формировании коммуникативного воздействия между автором и читателем, а также между персонажами. На материале узбекской литературы объясняется прагматическое значение таких средств, как курсив, прописные буквы, кавычки, лексическая экспрессивность, порядок слов, повторы. Кроме того, на основе научных источников приводится классификация прагматики художественного текста и описываются методы её исследования.

KIRISH

Matn muloqot birligi bo'lib qolmay, psixologik, nutqiy va pragmatik xarakterdagi birlik ekanligi ham ko'pgina olimlar tomonidan keng e'tirof etilgan. Aksariyat ilmiy tadqiqot ishlarida semantika bilan bir qatorda pragmatika ham matnning muhim jihatlaridan biri sifatida qaraladi. Matn pragmatikasi va uning o'ziga xos jihatlari xorijlik va mahalliy tilshunos va tarjimashunos olimlar tomonidan atroflicha tadqiq etilgan bo'lib, ulardan Andreas X. Jucker va Miriam A. Locherlar badiiy asarlar pragmatikasining umumiy yondashuv va tendensiyalarini tadqiq etgan [3, B.5] N.M. Shanskiy "matndagi stilistik vositalar orqali pragmatik ma'noning ta'minlanishini, rus olimlaridan Z. Dotmurziyeva ingliz badiiy asarlari pragmatikasi va uning tarjima muammolari ustida izlanish olib borgan bo'lsa, A.Kojahmetova korpus lingvistikasidagi badiiy asarlarning pragmatik jihatlarini tadqiq etgan [5, B.158].


METOD VA METODOLOGIYA

Matn pragmatikasi tushunchasi ancha keng doirada qo'llanilganligi bois, biz matn pragmatikasining bir necha majburiy komponentlarini ajratib ko'rsatish zarur deb hisobladik. Bu borada V.L. Nayer quyidagi komponentlarni matnda mavjud bo'lishi zarurligini aytib o'tgan:

- matn pragmatikasi global kategoriya sifatida, u har bir matnning majburiy xossasi bo'lib, murojaat qiluvchining aloqa obyektiga, kommunikativ aktning o'ziga va u orqali adresatga munosabatini aks ettiradi;
- adresant va adresatning mavjudligi;
- matnning pragmatik intensiyasi;
- pragmatik mazmun;
- matning pragmatik ta'siri [6, B.5].

Xususan, Amerikalik tadqiqotchi T. Hayder o'z dissertatsiyasida badiiy asarlar pragmatikasini o'rganib, Lois Lovrining "The Giver" asarini P. Graysning implikaturalar nazariyasiga asosan tahlil etadi. Olimning fikriga ko'ra, badiiy asarlarning pragmatikasi og'zaki nutq pragmatikasidan farq qiladi. Chunki yozuvchi asar yozish jarayonida chuqur

mushohada qilgan holda o'z g'oyasini o'quvchiga yetkazishga harakat qiladi, so'zlarni tanlashda juda ehtiyotkor bo'ladi. Ammo og'zaki nutqda muloqot o'z-o'zidan sodir bo'lganligi va tinglovchining reaksiyasi namoyon bo'lganligi bois pragmatik ta'sir turlicha bo'ladi [1, B.16]. T.Hayder o'z ishida badiiy asardan olinadigan pragmatik ta'sir, og'zaki muloqotga qo'llanilgan implikaturalar ta'siridan kuchliroq bo'lishini ta'kidlab o'tgan bo'lsa-da, fikrimizcha, ikkisining pragmatik ta'siri o'z o'rnida ahamiyatlidir. Chunki og'zaki muloqotda paralingvistik vositalar ham pragmatik ta'sirning oshishiga yordam beradi. Shuningdek, olim quyidagi diagramma orqali badiiy matn pragmatikasini tushuntirib berishga harakat qilgan (1-rasmga qarang).




Ushbu jadvalda namoyon bo'lganidek, pragmatik asosni badiiy matn tashkil etadi. Badiiy matnda pragmatik ma'noning namoyon bo'lishi ikki xil usulda amalga oshadi. Bunda, birinchi usul, badiiy asardagi qahramonlar (speaker/hearer) o'rtasidagi muloqot orqali amalga ohsa, ikkinchi usulda, yozuvchi va o'quvchi o'rtasida bevosita muloqot yuzaga kelib, asarning bosh g'oyasi pragmatik ta'sir orqali o'quvchiga yetib boradi.

NATIJALAR

Yozuvchi badiiy matn yaratish jarayonida barcha ijodiy, aqliy, intellektual, lisoniy imkoniyatlarini safarbar etadi va uning o'ziga xos individual uslubi ham badiiy matn tuzilishida alohida ahamiyat kasb etadi. Mukammal yaratilgan badiiy matnning eng muhim, boshqa matn turlaridan farqli xususiyatlari sifatida ifoda usulining betakrorligi, muayyan maqsad va g'oyani ifodalash uchun yaratilgani, ruhiy, estetik, didaktik ta'sir ko'rsatishning kuchliligini kabilarni sanab o'tish mumkin. Matn yaratilishida yozuvchi (yoki so'zlovchi) omilini tadqiq etish individual uslub masalasini ham chuqurroq yoritishga olib keladi.

Bu borada, Y.K. Pirogova badiiy matnlardagi implisit ma'nolarning manbalari va turlarini, shuningdek, ulardan kommunikativ ta'sir va manipulyatsiya maqsadlarida foydalanish usullarini aniqlashni taklif qiladi [7, 209–227]. Bular so'z va konstruksiyalarning an'anaviy semantikasini tashkil etuvchi komponentlar hisoblanib, ular asosida, xususan, nutq aktining muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun shart-sharoitlarni tashkil etuvchi semantik presuppozitsiyalar va implisit komponentlarni o'z ichiga olgan an'anaviy implikaturalar paydo bo'ladi. Badiiy

matnda an'anaviy va muloqot implikaturalarning qo'llanilishga doir izlanish va fikrlarni ilmiy ishimizning keyingi qismlarida kengroq yoritib beramiz. Yuqoridagi nazariy qarashlarga tayangan holda bir necha olimlar badiiy matn pragmatikasini tasniflashgan. Xususan, Z.Dotmurziyeva o'z izlanishlarida badiiy matn pragmatikasini quyidagicha tasniflaydi [4, B.24] (2-rasmga qarang):



2-rasm. Z.Dotmurziyevaning badiiy matn pragmatikasi tasnifi

Ushbu jadvalda ko'rib turganimizdek, tadqiqotchi, badiiy matn pragmatikasini 4 sathga bo'lib, ularning qanday shaklda matnda namoyon bo'lishini izohlab bergan:

1. Fonografik sath eng kichik sath bo'lib, unga matnda grafon, kursiv, bosh harflar va qo'shtirnoqlarning qo'llanilishi misol bo'ladi oladi.

2. Leksik sath o'z ichiga hissiy bo'yoqdorlikka ega bo'lgan leksika, tilning stilistik o'zgaruvchanligi va muallif tomonidan qo'llanilgan neologizm va okkazonalizmlarni oladi.

3. Sintaktik sathda so'roq gaplar, elliptik gaplar, inversiya va takrorlarni pragmatik jihatlari o'rganiladi.

4. Umumiy matn sathida esa muallif va personaj obrazining o'zaro aloqasi hamda makrokontekstdan anglashilgan pragmatik ma'nolar tahlil etiladi.

MUHOKAMA

Eng kichik sath bo'lgan, fonografik sathda grafonlar, bosh harflar va kursivlardan foydalanish orqali adresant adresantga ma'lum bir axborotni yoki g'oyani berishga ishora qiladi. Ulardan biri bu – badiiy matnda grafondan foydalanish bo'lib, bir qancha maqsadlarni ko'zda tutadi. Birovning nutqining haqiqiyliги effektini yaratish uchun muallif hikoya matniga qo'shimcha so'zlashuv elementlarini kiritadi. Bu personajlarning bevosita nutqiga ham, hikoya qiluvchining bilvosita nutqiga ham tegishli. Qoidaga ko'ra, yozuvchilar o'z qahramonlarining satrlarini jonli ovozli nutq normalariga yaqinlashtirishga harakat qilishadi. Bu yozuvdagi nutq tasvirining grammatik va fonetik xususiyatlarida aniq namoyon bo'ladi.

Misol uchun, ingliz tilida norasmiy va ogʻzaki nutqqa xos hisoblangan *“ain’t”* birligining qoʻllanilishi juda muhim pragmatik xarakterga ega. U yosh, ijtimoiy qatlam, soʻzlovchi va tinglovchi oʻrtasidagi munosabatni ifodalab keladi.

Shuningdek, kursivning qoʻllanilishi gapga urgʻu berib, suhbatdosh yoki oʻquvchining eʼtiborini soʻzlovchining maʼlum soʻzlariga eʼtibor qaratishga chaqirib, pragmatik taʼsir yaratadi. Masalan, Oʻtkir Hoshimovning *“Daftar hoshiyasidagi bitiklar”* asarida quyidagi parcha kursivda berilgan:

“... Kambagʻal yanayam qashshoqlashib ketaversa-yu, biron holing nima kechdi demasa, boy yanayam boyib ketsa-da, ajoyib kunlarning birida kambagʻal qoʻshnisining uyini sotib olmoqchiligi, buzib tashlab oʻrniga “kichikroq xususiy gastinitsa” qurish niyati borligini shama qilsa, Bedil hazratlari koʻp asrlar avval yozgan bayt haqiqatga aylanishi mumkin.

“Hech kim oʻz kissasini toʻldira olmas,

Oʻzganing kissasiga toki qoʻl solmas...” (Oʻ. Hoshimov, *Daftar hoshiyasidagi bitiklar*, 82-bet)

Ajratib koʻrsatilgan parchada koʻrinib turganidek, kursivda berilgan qism butun hikoyaning asosiy gʻoyasini ochib berishi mumkin. Bu parchada muallif ham boshqa yozuvchidan iqtibos keltirish, ham u iqtibosni kursivda berish orqali badiiy matnning pragmatik taʼsirining oshishiga zamin yaratgan.

Bosh harflar, oʻz navbatida, eng oddiy soʻzlarni qoʻshimcha maʼno bilan toʻldirib, hissiy konnotatsiyalar yaratadi. Yuqorida nomi tilga olingan asardan olingan ushbu parchaga eʼtibor qaratadigan boʻlsak, bosh harflar bilan yozilgan soʻz orqali yozuvchi oʻquvchiga yetkazmoqchi boʻlgan maʼlum bir gʻoyani anglash mumkin:

DEBOCHA

Adolat **HAQIQAT**ni aytish va tinglashdan boshlanadi. (Oʻ. Hoshimov, *Daftar hoshiyasidagi bitiklar*, 12-bet)

Ushbu parchada esa, yozuvchi tomonidan *“HAQIQAT”* soʻziga berilgan urgʻuni va bu soʻzning bosh harflarda yozilganligini koʻrishimiz mumkin. Bunda yozuvchining pragmatik intensiyasi adresatni boshqa soʻzlarga emas, balki *“HAQIQAT”* soʻziga eʼtiborini qaratishga undash va *“HAQIQAT”*ning adolatni taʼminlashda qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligi taʼkidlash orqali amalga oshmoqda. Bu ham fonografik sathda asar pragmatik xususiyatini alohida taʼkidlanishiga sabab boʻladi.

Keyingi fonografik sathning asosiy vositasi – qoʻsh tirnoqning ishlatilishi boʻlib, u ham adresantga pragmatik taʼsir berishda qoʻllaniladi:

“Ayol qavmini ipidan ignasigacha bilaman”, deysizmi? O-o-o siz daho ekansiz! (Oʻ. Hoshimov, *Daftar hoshiyasidagi bitiklar*, 14-bet)

Xulosa. Umuman olganda, fonografik vositalar badiiy asarlardagi pragmatik maʼnoni adresatga yetkazishda juda muhim rol oʻynaydi. Leksik birliklarning badiiy matnda oʻrni beqiyosligini hisobga olgan holda, badiiy matn pragmatikasida, xususan, yozuvchining pragmatik intensiyasini yetkazishda leksik til birliklar muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, matn pragmatikasida har qanday soʻz yoki iboradan foydalanish uning funksionalligi nuqtai nazaridan tasvirlanadi va tahlil qilinadi. Badiiy asarlardagi soʻzlarning pragmatik xususiyatlarini ochib berishda ularning asl lugʻaviy maʼnosi emas, balki maʼlum bir kontestda qanday maʼnoda kelayotganligi muhimroqdir. Badiiy tarjimaning pragmatik xususiyati maʼlum soʻzlarning kontekstual maʼnolariga eʼtibor qaratgan holda tarjima qilishni koʻzda tutadi.

Pragmatik adaptatsiya badiiy tarjimada asosiy rol o'ynab, yozuvchi nazarda tutmoqchi bo'lgan ma'noni tarjimonning badiiy matnni moslashtirishi va matnga ma'lum o'zgartirishlar kiritishi orqali o'quvchiga tushunarli bo'lishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Al-Saedi, Hayder Tuama Jasim, Thesis. Paper 1288. A pragmatic study of the Cooperative Principle and Grice's maxims in Lois Lowry's The Giver. 2013. P.16
 2. Hoshimov O'. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. – T.: Adabiyot uchqunlari, 2018. – 224b.
 3. Locher M.A., Jucker A.H. Pragmatics of Fiction. Berlin/Boston: De Gruyter. 2017. P.5
 4. Дотмурзиева З.С. Прагматика англоязычного художественного текста и проблемы прагматики его перевода, Автореф. дисс...канд.филол.наук. – Пятигорск, 2006. 24 с.
 5. Қожахметова А.Қ. Исследование прагматики художественного текста в корпусной лингвистике//ҚазҰУ хабаршысы. Филология сериясы. No 6 (158). 2015.
 6. Наер В.Л. Прагматика текста и ее составляющие // Сб. науч. трудов. Вып. 245. –М., 1985. – С.5
 7. Пирогова Ю.К. Имплицитная информация как средство коммуникативного воздействия и манипулирования // Проблемы прикладной лингвистики. –М., 2001. – С. 209-227.
- Шанский Н.М. Лингвистический анализ художественного текста. – Ленинград: Просвещение, 1990. – С. 5